

**ADVOKATLIK FAOLIYATIGA OID XALQARO STANDARTLAR
TIZIMI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHLTLARI**

Jo‘rayev Javoxir Meliboy o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistrani

jjuraev571@gmail.com

***Annotatsiya:** ushbu maqolada advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro standartlar tizimi keng qamrovli ilmiy tahlil qilingan. Maqolada advokatlik instituti tarixi va uning zamonaviy xalqaro-huquqiy bazasi, xalqaro hujjatlar - jumladan, BMT tomonidan qabul qilingan «Advokatlarning roli to‘g‘risidagi asosiy tamoyillar» (1990), Advokatlar xatti-harakati yevropcha qoidalari (CCBE) va boshqa mintaqaviy standartlar — tahlil etilgan. Yetakchi xorijiy va mahalliy olimlarning advokatlik mustaqilligi, etikasi va faoliyatini tartibga solishga oid ilmiy qarashlari umumlashtirilgan. Maqola O‘zbekiston advokatlik tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga oid amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

***Kalit so‘zlar:** advokatlik faoliyati, xalqaro standartlar, advokatlar mustaqilligi, huquqiy yordam, BMT tamoyillari, CCBE, O‘zbekiston advokatlik tizimi, kasbiy etika, huquqiy davlat.*

Kirish

Huquqiy davlat tamoyilini amalga oshirishda advokatlik instituti o‘ziga xos o‘rin tutadi. Advokat - bu nafaqat muayyan shaxsning manfaatini himoya qiluvchi mutaxassis, balki haqiqiy ma‘nodagi adolat tizimini tashkil etuvchi asosiy subyektlardan biridir. Advokatning sifatli va mustaqil faoliyati insonning asosiy huquqi - adolatli muhokamaga bo‘lidigan huquq bilan bevosita bog‘liq. Aynan shu sababdan advokatlar faoliyatiga nisbatan qo‘llaniladigan standartlar milliy doirasidan chiqib, xalqaro huquqiy tizimning muhim qismiga aylangan.

So‘nggi o‘n yilliklarda advokatlik faoliyatini xalqaro miqyosda tartibga solish masalasi keskin dolzarblashib bormoqda. Bunga bir qator omillar sabab bo‘idi. Jumladan, xalqarolashtirish va globallashuv jarayonlari natijasida huquqiy chegaralar o‘rtasidagi huquqiy muammolarning ko‘payishi, insonning asosiy huquqlari - xususan, adolatli muhokama va huquqiy himoyaga egalik huquqlarining yanada kengroq tan olinishi, raqamli texnologiyalar rivojlanishi advokatlik amaliyotini tubdan o‘gartirishi¹, hamda “advokatlarning siyosiy ta’sir va repressiyalarga duchor bo‘ilishi holatlari sababli ularni muhofaza qilish zaruriyati² va boshqalar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi ham advokatlik sohasini isloh qilish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘ymoqda. 2021-yilda qabul qilingan “Advokatlik faoliyati va advokatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi³ yangi qonun bu borada muhim asos yaratdi. Ammo, xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasini ilmiy baholash masalasi hali to‘liq o‘z yechimini topgani yo‘q.

Maqolaning maqsadi - advokatlik faoliyatiga oid xalqaro standartlar tizimini tarixiy-huquqiy, qiyosiy va tizimli tahlil metodlari asosida har tomonlama tadqiq etish, xalqaro hujjatlar va ilmiy adabiyotlar asosida ushbu standartlarning mohiyatini ochib berish, hamda O‘zbekiston kontekstida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Advokatlik faoliyatining tarixiy takomili va o‘rganish zaruriyati

Advokatlik institutining tarixi insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki huquqiy tizimlariga borib taqaladi. Qadimgi Mesopotamiyada - miloddan avvalgi III ming

¹Susskind, R. (2017). Online courts and the future of justice. Oxford University Press, p. 45.

²Lawyers for Lawyers. (2020). Report on threats to lawyers worldwide 2019–2020. Lawyers for Lawyers Foundation.

³O‘zbekiston Respublikasi Advokatlik faoliyati va advokatlar kafolatlari to‘g‘risidagi Qonun. (1998, 25-dekabr). O‘RQ-721-I-son.

yillikda - sud jarayonlarida himoyachi vazifasini bajaruvchi shaxslar mavjud bo'lganligi ma'lum.⁴ Qadimgi Misrda esa «logograf» deb ataluvchi maxsus mutaxassislar taraflarga huquqiy yordam berishgan. Biroq advokatlik kasbi o'zining dastlabki shakllanishini qadimgi Gretsiya va Rimda boshlagan.

Qadimgi Rim huquqi advokatlik institutini ixtisoslashgan kasb sifatida mustahkamladi. «Advocatus» atamasi lotincha «ad vocare» - «chaqirish», «yordamga chorlaish» ma'nolaridan kelib chiqqan bo'lib, dastavval do'st sifatida sudga ergashib keladigan, keyinchalik esa kasbiy huquqiy yordam ko'rsatadigan shaxsni bildirgan.⁵ Justinian kodifikatsiyasi (529-534-yillar) advokatlarning huquqlari, majburiyatlari va mas'uuliyatini birinchi bor sistematik tartibga solib, keyingi Yevropa huquqi uchun poydevor yaratdi.

O'rta asrlarda, Yevropa universitetlarida kanonik va rimcha huquq o'qitila boshlangach, advokatlik yanada rasmiylashdi. 1292-yilda Fransiyada birinchi advokatlar tashkiloti - «Ordre des Avocats» - tashkil etildi⁶ va bu hodisa advokatlik kasbini tartibga solishning tarixiy boshlanishi deb baholanadi. Angliyada XIII asrda «barristers» va «solicitors» o'rtasidagi farqlanish shakllana boshladi - bu tizim hozirgacha saqlanib qolmoqda.

Zamonaviy advokatlik standartlarining shakllanishi XIX asrga to'g'ri keladi. 1803-yilda Napoleon kodeksi Frantsiya advokatlik tashkilotini rasmiylashtirdi. 1846-yilda AQSh barining ilk kasbiy etika qoidalari belgilanishi huquqiy tarixda muhim bosqich bo'di.⁷ XX asrda esa, ayniqsa Ikkinchi Jahon urushidan keyin,

⁴Roth, M. T. (1997). Law collections from Mesopotamia and Asia Minor (2nd ed.). Scholars Press.

⁵Kunkel, W. (1973). An introduction to Roman legal and constitutional history (2nd ed., J. M. Kelly, Trans.). Clarendon Press, p. 73. (Original work published 1966)

⁶Martines, L. (1979). Lawyers and statecraft in Renaissance Florence. Princeton University Press.

⁷Abel, R. L., & Lewis, P. S. C. (Eds.). (1988). Lawyers in society: Vol. 1. The common law world. University of California Press.

advokatlik faoliyatini xalqaro darajada tartibga solish zarurligi tobora aniq anglana boshladi.

O‘ranish zaruriyatini belgilovchi to‘rt asosiy omilni ajratish mumkin: advokatlik - insonning asosiy huquqi bo‘ligan adolatli muhokamani ta’minlashning kalit elementi⁸, “advokatlar siyosiy bosim va tahdidlarga doimo ta’sirchan bo‘lib kelgan, raqamlashuv va globallashuv sharoitida milliy standartlar ko‘pincha yetarli bo‘may qolmoqda, O‘zbekiston kabi o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida huquqiy islohotlar samaradorligi bevosita advokatlik sifatiga bog‘liqligi⁹ va boshqalar shular jumlasidandir.

Advokatlik standartlarini o‘rgangan olimlar va nazariyalar

G‘arb ilmiy maktabi nazariyalari. Advokatlik faoliyatiga oid xalqaro standartlarni o‘ranishda G‘arb ilmiy maktabi yetakchi o‘rinni egallaydi. Ushbu yo‘nalishdagi dastlabki fundamental tadqiqotlar Rikard Abelning ishlari bilan bog‘liq. Abel «English Lawyers between Market and State» asarida advokatlik kasbining davlat va bozor kuchlari bilan munosabatini tahlil qilib, kasbiy mustaqillik tushunchasini nazariy jihatdan asosladi:¹⁰ Advokatlar aslida uch o‘lichamli makon — davlat, bozor va fuqarolik jamiyati - kesishmasi nuqtasida faoliyat ko‘rsatadi. Bu o‘rindagi muvozanat ularning mustaqilligini ta’minlashning asosiy shartidir deb ta’kidlaydi.

Devid Luban «Lawyers and Justice: An Ethical Study» asarida advokatlik etikasining falsafiy poydevorini yaratdi. Luban fikricha, advokatning kuchli partiya

⁸Faundez, J. (2010). Access to justice and the rule of law. IDS Bulletin, 41(1), 87. <https://doi.org/10.1111/j.1759-5436.2010.00109.x>

⁹Hamidov, A. (2022). O‘zbekistondagi advokatlik islohotlari: xalqaro standartlar bilan muvofiqlik tahlili. Huquq va jamiyat, 3(1), 112.

¹⁰Abel, R. L. (1988). English lawyers between market and state: The politics of professionalism. Oxford University Press, p. 124.

manfaatdorini emas, balki adolatning vositachisi vazifasini o‘tashi kerak. Ushbu yondashuv «partisan advocacy» an‘anasiga muqobil sifatida taklif etilgan bo‘lib, zamonaviy xalqaro standartlarda ham aks etmoqda.¹¹

Uilyam Simon «The Practice of Justice» asarida advokatlik etikasini kontekstuallashtirib, «formal» yondashuvdan «kontekstual» yondashuvga o‘tishni taklif etdi. Simon ta’idlashicha, standartlar qattiq qoidalar emas, balki prinsiplar asosida qurilgandagina haqiqiy adolatni ta’minlaydi.¹²

Richard Susskind «Tomorrow’s Lawyers» va «The End of Lawyers» asarlarida texnologiyaning advokatlik amaliyotiga ta’sirini tahlil qilgan.¹³ Susskind fikricha, an‘anaviy advokatlik modeli raqamli inqilob sharoitida tubdan o‘garzishi muqarar bo‘lib, xalqaro standartlar ham bu o‘garishni hisobga olishi lozim. Bu ilmiy bashorat bugungi kunda sun‘iy intellekt va legal-tech rivojlanishi bilan tasdiqlanyapti.

Xalqaro huquq nazariyalari. Singhvi BMT doirasida ishlab chiqilgan «Advokatlar va sudyalarning mustaqilligi to‘g‘risidagi deklaratsiya»ning asosiy muallifi sifatida advokatlik mustaqilligi tushunchasiga yangi mazmun berdi. U mustaqillikni uch darajada ko‘rib chiqdi: individual mustaqillik, kasbiy mustaqillik (advokatlik tashkilotlari darajasida) va tizimli mustaqillik (davlat organlaridan mustaqillik darajasida).¹⁴ Ushbu tushunchalar yevropa mamlakatlari doirasida mashxurlikka erishgan.

Yana bir g‘arb huquqshunosi Fransua Jorion advokatlar huquqiy maqomini xalqaro insoniy huquqlar kontekstida tahlil qilib, “advokat - sud va ijtimoiy

¹¹Luban, D. (1988). Lawyers and justice: An ethical study. Princeton University Press, p. 56.

¹²Simon, W. H. (1998). The practice of justice: A theory of lawyers' ethics. Harvard University Press.

¹³Susskind, R. (2013). Tomorrow's lawyers: An introduction to your future. Oxford University Press.

¹⁴Singhvi, L. M. (1988). Study on the independence and impartiality of the judiciary, jurors and assessors and the independence of lawyers. UN Doc. E/CN.4/Sub.2/1988/20. United Nations.

adolatning ko‘zgusi”¹⁵ degan kontseptsiyasini ishlab chiqdi. U Yevropaning turli advokatlik tizimlarini qiyosiy tahlil qilib, ularning umumiy va o‘iga xos jihatlarini aniqladi.

Turkiya olimi Aker rivojlanayotgan mamlakatlar misolida advokatlik mustaqilligining demokratik jarayonlarga ta’sirini o‘rganib chiqqan. U 42 mamlakatni qamrab olgan empirik tadqiqot asosida shunday xulosaga keldi: advokatlarning kasbiy mustaqilligi va adolatga kirish imkoniyati o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri korrelyatsiya mavjud bo‘lib, bu ko‘rsatkich mamlakat demokratiya indeksining 23%ini tushuntiradi¹⁶ deya takidlagan.

Mahalliy va mintaqaviy olimlar. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo advokatlik huquqini o‘ranishda bir qator mahalliy olimlarning hissasi muhimdir. Hamidov O‘zbekistondagi advokatlik islohotlarini xalqaro standartlar prizmasi orqali baholagan va milliy qonunchilikdagi bo‘shliqlarni aniqlagan. U ta’idlashicha, 2021-yilgi qonun muhim qadam bo‘ilsa-da, advokatlar Oliy kengashining moliyaviy mustaqilligi va adashtiruvchan reklama qoidalari kabi masalalar hali takomilni talab qiladi.

Toshmatova va Xoliqov O‘zbekistondagi bepul huquqiy yordam tizimini tahlil qilib, uning xalqaro standartlarga muvofiqligini baholadilar. Tadqiqot ko‘rsatishicha, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining huquqiy yordam olish imkoniyati keng ko‘lamli islohotlarni talab qiladi.¹⁷

Dilshodbek Nurimov advokatning vakili (doviritel') bilan munosabatlarida advokatlik siri va manfaatlar to'qnashuvi masalasi advokatura standartlarining

¹⁵Jorion, F. (1995). *L'avocat, miroir de la société et de la justice: Étude comparative européenne*. Bruylant.

¹⁶Aker, M. (2021). Lawyers' independence and democratic governance: An empirical analysis of 42 countries. *Journal of International Law and Comparative Studies*, 14(2), 67.

¹⁷Toshmatova, N., & Xoliqov, B. (2020). O'zbekistondagi bepul huquqiy yordam tizimining xalqaro standartlarga muvofiqligi. *Yuridik fanlar axborotnomasi*, 2(4), 34–55.

muhim qismi hisoblanadi. Milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, huquqiy munosabatlarning mazmuni va mohiyati ko'p hollarda qonunchilikda etarlicha tartibga solinmagan deya fikr bildirgan.¹⁸

Shuningdek, Baxrom Salimov “O'zbekistonda advokatura institutining hozirgi holatini tahlil qilar ekanmiz, advokatlar va talabalar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, advokatura standartlarini takomillashtirmasdan turib, institutni yanada isloh qilish mumkin emas. Muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar shakllantirish zarur”¹⁹ deya takidlaydi

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, advokatlik faoliyatidagi xalqaro standartlar advokatning mustaqilligi, kasbiy etikasi, odil sudlovni ta'minlashdagi roli hamda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan universal prinsiplar tizimini anglatadi. G'arb ilmiy maktabi vakillari ushbu standartlarning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa, xalqaro huquqshunoslar ularni amaliy va institutsional mexanizmlar bilan boyitgan. Mahalliy olimlar esa mazkur standartlarni O'zbekiston sharoitida qo'llash muammolari va istiqbollari ochib bergan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, advokatlarning kasbiy mustaqilligi, etik me'yorlarga rioya qilishi hamda huquqiy yordamning ochiqligi demokratik jamiyat va adolatli sudlovning muhim kafolati hisoblanadi.

Hozirgi kundagi xalqaro huquqiy asoslar

BMT doirasidagi asosiy hujjatlar. Advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi eng muhim xalqaro hujjat - «Advokatlarning roli to'g'risidagi asosiy tamoyillar»

¹⁸ Нурумов, Д. (2021). Вопросы дальнейшего совершенствования организационно-правового механизма оказания адвокатом юридической помощи субъектам предпринимательства. *Общество и инновации*, 2(6/5), 302–316: <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/1052>

¹⁹ Саломов, Б. (2020). Адвокатура в Узбекистане: текущее состояние и перспективы развития. *Общество и инновации*, 1(1), 107–113. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol1-iss1-pp107-113>

bo‘lib, u 1990-yilda Gavanada o‘tikazilgan BMT tomonidan tashkil etilgan Jinoyatning oldini olish va jinoyatchilarga munosabat bo‘yicha VIII Kongressda qabul qilingan.²⁰ Ushbu hujjat 29 ta tamoyildan iborat bo‘lib, to‘rt asosiy guruhga ajratish mumkin: adolatga kirish imkoniyati (1–4-tamoyillar), malakaviy talablar va kasbiy ta‘ilim (5–7-tamoyillar), vazifalari va himoyalar (8–15-tamoyillar), kasbiy mustaqillik va o‘z-o‘ini boshqarish (16–29-tamoyillar).

Hukumatlar advokatlar uyushmasining mustaqilligini tan olib, qo‘lab-quvvatlashlari lozim, chunki ular huquq ustuvorligini ta‘minlashda va adolatga kirish imkoniyatini kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Ushbu tamoyillar yuridik jihatdan majburiy emas - ya‘ni «soft law» kategoriyasiga kiradi. Ammo ularning manbai bo‘ligan BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari davlatlar uchun muhim siyosiy majburiyat yaratadi. Shu bilan birga, BMT Insoniy huquqlar qo‘mitasi va boshqa monitoring organlar ushbu tamoyillarni baholash mezonlari sifatida qo‘llaydi.²¹

Mintaqaviy standartlar: Yevropa tizimi. Yevropa miqyosida eng katta ahamiyatga ega hujjat —Yevropa advokatlar xatti-harakati qoidalari (CCBE Code of Conduct for European Lawyers, 2006) hisoblanadi. Yevropaning 45 mamlakatini birlashtiruvchi CCBE tomonidan ishlab chiqilgan bu hujjat transhegaraviy faoliyat yurituvchi advokatlar uchun yagona etika standartini belgilaydi.²²

²⁰United Nations [UN]. (1990). Basic principles on the role of lawyers. Eighth UN Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders. UN Doc. A/CONF.144/28/Rev.1.

²¹United Nations Human Rights Committee [UNHRC]. (2007). General Comment No. 32: Article 14. CCPR/C/GC/32.

²²Council of Bars and Law Societies of Europe [CCBE]. (2006). Code of conduct for European lawyers. CCBE, Art. 2.1.

CCBE qoidalarining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: mustaqillik - advokat barcha tashqi ta'sirlardan erkin bo'lishi lozim; sir saqlash va maxfiylik - advokat-mijoz muloqotining maxfiyligi muddatsiz saqlanishi shart²³; manfaatlar to'qnashuvi - advokat bir vaqtda qarama-qarshi manfaatli tomonlar uchun ish yurita olmaydi; kasbiy kompetentlik - doimiy kasbiy takomillashtirish (CPD) majburiyati.

Yevropa inson huquqlari sudi (YIHS) advokatlar mustaqilligini 6-modda (adolatli muhokama) va 10-modda (ifoda erkinligi) doirasida ko'rib chiqadi. «Steur va Netherlands» (2003) ishida YIHS advokat erkinligini himoya qilishda foydalanilgan.²⁴ Shuningdek, «Morice v. France» (2015) ishida esa YIHS advokatning sud tizimini tanqid qilish huquqini 10-modda himoyasi ostida mustahkamladi.²⁵

IBA xalqaro standartlari . Xalqaro Advokatlar Assotsiatsiyasi (IBA) 1990-yilgi BMT tamoyillariga asoslanib, «Advokatlik faoliyatini tartibga solish uchun xalqaro standartlar» (IBA International Principles on Conduct for the Legal Profession, 2011) hujjatini qabul qildi.²⁶ Ushbu hujjat advokatlar uchun universal, millat va tizimdan mustaqil etika prinsiplarini belgilaydi. Xususan, mijozga sodiqlik, mustaqillik, maxfiylik, haqiqat va adolat, malaka, adolatli baho kabi tamoyillarni mustahkamladi.

O'zbekiston advokatlik tizimi va xalqaro standartlarga muvofiqlik

O'zbekistonda advokatlik institutining tarixi milliy qonunchilik tarixiga hamohang rivojlangan. Sovet davrida advokatlar «kollegiya» tizimiga tobe bo'lib,

²³CCBE (2006), Art. 2.3.

²⁴Steur v. Netherlands, App. No. 39657/98, European Court of Human Rights (2003).

²⁵Morice v. France, App. No. 29369/10, European Court of Human Rights (Grand Chamber, 2015).

²⁶International Bar Association [IBA]. (2011). IBA international principles on conduct for the legal profession. International Bar Association.

davlatning ichki huquqiy tuzilishi elementi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Mustaqillikdan keyin 1996-yilda birinchi «Advokatlik faoliyati to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning qabul qilinishi xalqaro standartlarga yaqinlashish yo'yilida muhim qadam sifatida baholanadi.

Yangi qonunning xalqaro standartlarga muvofiq jihatlari: advokat sirini qonuniy himoyalash, advokatura institutining o'z-o'ini boshqarish kafolatlari, malakaliy huquqiy yordam, advokatlarning ijtimoiy himoyasi va boshqalar shular jumlasidan hisoblanadi.

Shu bilan birga, bir qator masalalar xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan yanada takomillashtirishni talab qiladi. Xususan, advokatlarlarning moliyaviy mustaqilligi, elektron advokat-mijoz muloqotining maxfiyligi kafolatlari, xalqaro advokatlar bilan hamkorlik va o'zaro tan olish mexanizmlari, mahallalar uchun bepul huquqiy yordam masalalari shular jumlasidandir.

Advokatlik sohasini rivojlantirish uchun takliflar

Qonunchilikni takomillashtirish

Birinchi, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksida advokatning qonuniy faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlik masalasini kuchaytirish va Jinoyat kodeksiga "Advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish" moddasini kiritish lozim. Amaliyotda tergov organlari tomonidan advokatlarning himoya funksiyasiga to'sqinlik qilish, himoyachi bilan uchrashuvni kechiktirish, ish materiallari bilan tanishishga sun'iy cheklov qo'yish holatlari uchrab turadi. Bu esa "protsessual tenglik" prinsipiga zid hisoblandi. Xalqaro standartlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, BMT tomonidan 1990-yilda qabul qilingan Yuristlarning roliga oid asosiy prinsiplarga ko'ra advokat o'z vazifasini bosimsiz bajarishi, mijoz bilan erkin va maxfiy uchrashishi vadavlat organlari

SJIF: 5.051

tomonidan ta'qib qilinmasligi kerak hisoblanadi. Yuqoridagi asoslardankelib chiqib Advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilganik uchun javobgarlikni kuchaytirish zarur.

Ikkinchi, Davlat hisobidan yuridik yordam (Legal Aid) tizimini mustaqil institutga aylantirish zarur. Hozirgi vaqtda, davlat hisobidan himoyachi tayinlash tizimi amalda tergov organlari orqali ishlamoqda. Bu esa advokat mustaqilligiga salbiy ta'sir qiladi. Xalqaro standartlarga muvofiq, bepul yuridik yordam mustaqil institut orqali amalga oshirilishi, himoyachi tanlashda davlat organlari ta'siri bo'lmasligi va bepul yuridik yordam mustaqil institut orqali amalga oshirilishi lozim hisoblanadi. Bundan tashqari, himoyachi tanlashda davlat organlari ta'siri bo'lmasligi kerakligi belgilangan. Hozirda navbatchi advokat tizimi to'liq raqamlashtirilmagan. Advokatni tanlashda shaffoflik muammosi mavjud va advokat mehnatiga haq to'lash kechikishi kuzatilmoqda.

Uchinchi, Mobil advokatlik xizmatlari tizimini joriy etish lozim. Hozirgi kunda chekka qishloqlarda huquqiy muammolar ko'payib bormoqda. Ushbu fuqarolar muammolarga yechim topishga qiynalib sarson bo'lishmoqda. Qishloq joylarda huquqiy yordam yetib bormasligi muammosini hal etish uchun harakatlanuvchi huquqiy yordam guruhlarini tashkil etish lozim bo'lmoqda.

Xulosa

Ushbu maqolada advokatlik faoliyatiga oid xalqaro standartlar tizimi uning tarixiy ildizlaridan boshlab zamonaviy global va mintaqaviy hujjatlarigacha keng qamrovli o'rgandildi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, xalqaro standartlar tizimi bir necha darajada shakllangan bo'lib, ular o'zaro uyg'un va to'ldiruvchi xarakter kasb etadi. Abel, Luban, Singhvi, Susskind kabi olimlarning nazariy ishlarida shakllangan g'oyalar BMT Asosiy Tamoyillari (1990), CCBE Qoidalari (2006) va IBA

Tamoyillari (2011) kabi normativ hujjatlarda o‘z ifodasini topgan. Bu standartlarning o‘zagi hisoblangan advokatning mustaqilligi, maxfiyligi va malakasi barcha tizimlarda o‘garmas asosiy tamoyillar sifatida namoyon bo‘iladi. O‘zbekistonda ham so‘ngi yillardagi islohotlari natijasida xalqaro standartlarga sezilarli darajada yaqinlashdi. Shu bilan birga, raqamli amaliyot huquqi, advokatlar tashkilotining to‘liq moliyaviy mustaqilligi va pro bono tizimi kabi sohalarda qo‘shimcha islohotlar zarurligiga ehtiyoj mavjud. Ilmiy tadqiqot nuqtayi nazaridan esa O‘zbekiston va qo‘shni mamlakatlar advokatlik tizimlarining qiyosiy tahlili, advokatlar bo‘yicha YIHS qarorlarining Markaziy Osiyo huquqiga ta’siri hamda sun’iy intellektning advokatlik amaliyotini o‘gartarishiga oid muammolar yanada chuqurroq o‘ranishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1) African Charter on Human and Peoples’ Rights. (1981). Adopted June 27, 1981, OAU Doc. CAB/LEG/67/3 rev. 5. African Union. <https://au.int/en/treaties/african-charter-human-and-peoples-rights>

2) American Convention on Human Rights. (1969). Signed November 22, 1969, O.A.S.T.S. No. 36, 1144 U.N.T.S. 123.

3) Council of Bars and Law Societies of Europe [CCBE]. (2006). Code of conduct for European lawyers (as amended in 2006). CCBE. <https://www.ccbe.eu>

4) International Bar Association [IBA]. (2011). IBA international principles on conduct for the legal profession. International Bar Association. <https://www.ibanet.org>

5) O‘bekiston Respublikasi Advokatlik faoliyati va advokatlar kafolatlari to‘g‘risidagi Qonun. (2020, 30-dekabr). O‘RQ-664-son. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/5220292>

6) O‘bekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). O‘bekiston Respublikasi Oliy Majlisi. <https://lex.uz/docs/6445147>

7) United Nations [UN]. (1985). Basic principles on the independence of the judiciary. Seventh UN Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders.

8) United Nations [UN]. (1990). Basic principles on the role of lawyers. Eighth UN Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders, Havana, Cuba. UN Doc. A/CONF.144/28/Rev.1.

9) United Nations Human Rights Committee [UNHRC]. (2007). General Comment No. 32: Article 14 — right to equality before courts and tribunals and to a fair trial. CCPR/C/GC/32.

10) United Nations Office on Drugs and Crime [UNODC]. (2012). UN principles and guidelines on access to legal aid in criminal justice systems. United Nations.

II. Ilmiy adabiyotlar va monografiyalar:

1) Abel, R. L. (1988). English lawyers between market and state: The politics of professionalism. Oxford University Press.

2) Abel, R. L., & Lewis, P. S. C. (Eds.). (1988). Lawyers in society: Vol. 1. The common law world. University of California Press.

3) Aker, M. (2021). Lawyers’ independence and democratic governance: An empirical analysis of 42 countries. *Journal of International Law and Comparative Studies*, 14(2), 55–89.

- 4) American Bar Association [ABA]. (2020). Model rules of professional conduct (2020 ed.). American Bar Association.
- 5) Faundez, J. (2010). Access to justice and the rule of law. *IDS Bulletin*, 41(1), 83–93. <https://doi.org/10.1111/j.1759-5436.2010.00109.x>
- 6) Hamidov, A. (2022). O‘bekistondagi advokatlik islohotlari: xalqaro standartlar bilan muvofiqlik tahlili. *Huquq va jamiyat*, 3(1), 105–120.
- 7) Jorion, F. (1995). *L’avocat, miroir de la société et de la justice: Étude comparative européenne*. Bruylant.
- 8) Kunkel, W. (1973). *An introduction to Roman legal and constitutional history* (2nd ed., J. M. Kelly, Trans.). Clarendon Press. (Original work published 1966)
- 9) Lawyers for Lawyers. (2020). *Report on threats to lawyers worldwide 2019–2020*. Lawyers for Lawyers Foundation.
- 10) Luban, D. (1988). *Lawyers and justice: An ethical study*. Princeton University Press.
- 11) Toshmatova, N., & Xoliqov, B. (2020). O‘bekistondagi bepul huquqiy yordam tizimining xalqaro standartlarga muvofiqligi. *Yuridik fanlar axborotnomasi*, 2(4), 34–55.
- 12) Voloshin, Y. (2019). Advokatlik standarty v stranakh SNG: evolyutsiya i tendentsii. *Pravovaya nauka i praktika*, 12(3), 78–97.

III. Sud qarorlari:

- 1) *Morice v. France*, App. No. 29369/10, European Court of Human Rights (Grand Chamber, 2015). <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-153436>
- 2) *Steur v. Netherlands*, App. No. 39657/98, European Court of Human Rights (2003). <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-61464>